

ISSN 2181-922X

TIL VA MADANIYAT

UZBEKISTAN

LANGUAGE & CULTURE

O'ZBEKISTON

2021 Vol. 4

www.navoiy-uni.uz
www.uzlc.navoiy-uni.uz

ISSN 2181-922X

O‘ZBEKISTON

TIL VA MADANIYAT

UZBEKISTAN

LANGUAGE AND CULTURE

2021 Vol. 4

www.navoiy-uni.uz
www.uzlc.navoiy-uni.uz

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti

Bosh muharrir: Shuhrat Sirojiddinov
Bosh muharrir o‘rinbosarlari: Zaynobiddin Abdirashidov
Qosimboy Ma‘murov
Mas‘ul kotib: Ozoda Tojiboyeva

Tahrir kengashi

Ahmadali Asqarov, Abdulaziz Mansur, Akmal Saidov, Akmal Nur, Adham Ashirov, Nizomiddin Mahmudov, Hamidulla Dadaboyev, Samixon Ashirboyev, Bahodir Karimov, Aftondil Erkinov, Baxtiyor Mengliyev, Uzoq Jo‘raqulov, Sulton Normamatov, Murtazo Sayidumarov, G‘aybulla Boboyorov, Nozliya Normurodova, Abdi Mamatov, Anvar Sayfullayev.

Tahrir hay‘ati

Isa Habibbeyli (Ozarbayjon)	Maria Sabtelni (Kanada)
Frederik Bressand (Fransiya)	Timur Kocaoğlu (AQSH)
Ingeborg Baldauf (Germaniya)	Almaz Ülvi (Ozarbayjon)
Mark Toutant (Fransiya)	Tanju Seyhan (Turkiya)
Rochelle Almeida (AQSH)	Xisao Komatsu (Yaponiya)
Akrom Habibullayev (AQSH)	Emek Üşenmez (Turkiya)
Valeriy S. Xan (O‘zbekiston)	Abdulvahap Kara (Turkiya)
Eunkyung Oh (Janubiy Koreya)	Alizoda Saidumar (Tojikiston)
Oqilxon Ibrohimov (O‘zbekiston)	Dilorom Ashurova (O‘zbekiston)
Shodmon Vohidov (Tojikiston)	Darya Jigulskaya (Rossiya)

“O‘zbekiston: til va madaniyat” jurnali – lingvistika, tarix, adabiyot, tarjimashunoslik, san‘at, etnografiya, falsafa, antropologiya va ijtimoiy tadqiqotlarni o‘rganish kabi sohalarni qamrab olgan akademik jurnal.

Jurnal bir yilda to‘rt marta chop etiladi.

Jurnalning maqsadi – ko‘rsatilgan sohalarga oid dolzarb mavzulardagi bahs-munozaraga undaydigan, yangi, innovatsion g‘oyalarga boy, o‘z konsepsiyasiga ega bo‘lgan tadqiqotlarni nashr etishdir.

Ingliz, rus va o‘zbek tillaridagi, shuningdek, boshqa turkiy tillarda yozilgan maqolalar qabul qilinadi. Iqtisodiy tahlillar hamda siyosatga oid maqolalar e‘lon qilinmaydi.

Jurnalda kitoblarga yozilgan taqrizlar, adabiyotlar sharhi, konferensiyalar hisobotlari va tadqiqot loyihalari natijalari ham e‘lon qilinadi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti.

O‘zbekiston, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko‘chasi, 103.

Email: uzlangcult@gmail.com
Website: www.uzlc.navoiy-uni.uz

Alisher Navo'i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature

Editor-in-Chief: Shuhrat Sirojiddinov
Deputy Editors in Chief: Zaynabiddin Abdirashidov
Kasimbay Mamurov
Executive secretary: Ozoda Tajibaeva

Editorial board

Ahmadali Asqarov, Abdulaziz Mansur, Akmal Saidov, Akmal Nur, Adham Ashirov, Nizomiddin Mahmudov, Hamidulla Dadaboev, Samixon Ashirboev, Bahodir Karimov, Aftondil Erkinov, Bakhtiyor Mengliev, Uzoq Juraqulov, Sulton Normamatov, Murtazo Sayidumarov, Gaybulla Babayarov, Nozliya Normurodova, Abdi Mamatov, Anvar Sayfullaev.

Editorial Committee

Isa Habibbeyli (Azerbaijan)	Maria Subtelny (Canada)
Frederique Bressand (France)	Timur Kozhaoglu (USA)
Ingeborg Baldauf (Germany)	Almaz Ulvi (Azerbaijan)
Marc Toutant (France)	Tanju Seyhan (Turkey)
Rochelle Almeida (USA)	Hisao Komatsu (Japan)
Akram Habibullaev (USA)	Emek Üşenmez (Turkey)
Valeriy S. Khan (Uzbekistan)	Abdulahap Kara (Turkey)
Eunkyung Oh (South Korea)	Alizoda Saidumar (Tajikistan)
Oqilkhon Ibrohimov (Uzbekistan)	Dilorom Ashurova (Uzbekistan)
Shodmon Vohidov (Tajikistan)	Daria Zhigulskaya (Russia)

“Uzbekistan: Language and Culture” is an academic journal that publishes works in the field of linguistics, history, literature, translation studies, arts, ethnography, philosophy, anthropology and social studies.

The journal is published four times a year.

The purpose of the journal is to publish the results of the latest research that are rich in new, innovative ideas and has its own concept, which stimulates debate on topical issues in these areas.

The language of articles can be English, Russian and Uzbek. Other Turkic languages are also welcome. We do not publish economic analyses or political articles.

In addition to research articles, the journal announces book and literary work reviews, conference reports and research project results.

The authors' ideas may differ from those of the editors'.

Alisher Navo'i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature.

103, Yusuf Khos Hojib, Yakkasaray, Tashkent, Uzbekistan.

Email: uzlangcult@gmail.com

Website: www.uzlc.navoiy-uni.uz

MUNDARIJA

Lingvistika

Tolib Enazarov

Dialektal matnlarning leksik tahlili metodi.....6

Jo'ra Xudoyberdiyev

Birinchi turkologiya qurultoyining chaqirilishi va maqsadi haqida.....19

Manzura Abjalova

Lingvistik ontologiya – leksik ma'lumotlar bazasi.....39

Dilafruz Muhammadiyeva

“Boburnoma”ning turkiy tillardagi tarjimalarida
paremiyalarning aks etishi.....60

Zoxira Xidraliyeva

O'zbek tilining Iqon shevasi vokalizmini areal o'rganishga doir.....74

Adabiyotshunoslik. Tarjimashunoslik

Shahnoza Rahmonova

XX asr ikkinchi yarmi she'riyatida g'azal janri poetikasi.....90

Gulnoza Jo'rayeva

Bolalar hajviy she'riyati – ma'rifiy va estetik tarbiya quroli
sifatida.....103

Din. Falsafa. Ilohiyot

Bahriddin Umurzoqov

“Rashahot” asarida Xojagon tariqati asoslari bayoni.....118

CONTENT

Linguistics

Tolib Enazarov

Method of lexical analysis of dialectal texts.....6

Jura Khudoyberdiyev

About aims and Organization of the first Turkological Conference.....19

Manzura Abjalova

Linguistic Ontology - Lexical Database.....39

Dilafruz Muhammadiyeva

Reflection of paremies in the translations of “Boburnoma”
in turkish languages.....60

Zakhira Khidralieva

On the study of the Ikan dialectvocalism of the Uzbek language.....74

Literature. Translation studies

Shahnoza Rahmonova

Poetics of the ghazal genre in uzbek poetry of the second
half of the XX century.....90

Gulnoza Jurayeva

Children's comic poetry as a mean of educational and
aesthetic education.....103

Religion. Philosophy. Theology

Bahriddin Umurzoqov

Detailed analysis of the foundations of the Khojagon tariqat
in the work “Rashakhot”.....118

LINGVISTIKA
LINGUISTICS

Dialektal matnlarning leksik tahlili metodi

Tolib Enazarov¹

Abstrakt

Dialektal soʻzlar oʻzbek xalq sheva va lahjalarida faol qoʻllanib, adabiy til sathida kam yoki umuman qoʻllanmaydigan leksik birliklar hisoblanadi. Ular adabiy tildagi soʻzlardan dialektal maʼno(lar)ga egaligi hamda faqat shevalarda faol qoʻllanishi bilan turadi. Ularning ayni vaqtdagi miqdori va turlari toʻgʻrisida fikr bildirilgan. Dialektal leksika va dialektal leksikografiya sohasida qilingan ishlar bu sohaning dolzarbligi oldida juda kamdir. Ayni vaqtda ilm-fanning vazifalaridan kelib chiqqan holda “Qarluq, qipchoq va oʻgʻuz lahjalari materiallari asosida elektron lugʻat va atlas yaratish” bilan shevalarning betakror lugʻaviy boyligini saqlab qolish mumkin.

Dialektal soʻzlarni yigʻish boʻyicha “Savol-javob”, “Anketa” usullari kabi bir necha amaliy usullar borligi eʼtirof etilgan. Ammo ularning hech biri “dialektal matnlarning leksik tahlili” usuli kabi natijador usullar emas. Chunki bunda sheva vakillaridan yozib olingan matnlar tarkibini leksik tahlil qilish asosida dialektal soʻzlarni aniqlab olish mumkinligi dialektologik amaliyotlar vaqtidagi amaliy tajribalarda qoʻllanilgan. Sheva vakillari nutqini dialektal matnlar sifatida yozib, transkripsiya qilib, undagi dialektal soʻzlarni aniqlash jarayoni “dialektal matnlarning leksik tahlili” usuli deyilishi maqolada bayon etilgan. Aytilgan fikrlarning isboti sifatida sheva vakillaridan yozib olingan dialektal matnlar ham berilgan.

Dialektologik kuzatishlar jarayonida ilgari surilayotgan dialektal matnlar tahlili metodining tarkibiy qismlari boʻlgan quyidagi xususiy metodlardan ham foydalanish maqsadga muvofiq: 1) dialektal matn(lar)-ni yozish metodi; 2) u(lar)ni transkripsiya qilish metodi; 3) dialektal matnlarni leksik tahlil talablari asosida dialektal soʻz turlarini aniqlash metodi; 4) dialektal soʻz turlarini dialektal matnlar asosida tahlil etib oʻqitish metodi; 5) “Bir sheva lugʻati”ni tayyorlash orqali sheva materiallarini yigʻish metodi.

¹Enazarov Tolib Djumanazarovich – filologiya fanlari doktori, dotsent, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat oʻzbek tili va adabiyoti universiteti.

E-pochta: enazrov@navoiy-uni.uz

ORCID ID: 0000-0001-6807-2674

Iqtibos uchun: Enazarov, D.T. 2021. “Dialektal matnlarning leksik tahlili metodi”. *Oʻzbekiston: til va madaniyat* 4: 6—17.

Agar bu metoddan faol foydalanilsa, shevalarning leksik boyligi bo'lgan dialektal so'zlarning eng kami ikki yarim-uch milliontasini bemalol topish, ularga lug'at maqolalar tayyorlab, zamonaviy tipdagi elektron lug'at hamda atlaslarini yaratish imkoniyati paydo bo'ladi. Shuningdek, dialektal so'z turlari haqida to'xtalib, ular o'nta ekanligi dalillab berilganligini ta'kidlash lozim. Bu ilgari surilgan hamda dialektologik amaliyotlar davomida sinalgan dialektal matnlar tahlili metodi va uning tarkibidagi quyidagi xususiy tadqiq metodlardan kelajakda faoliyat ko'rsatishi mumkin bo'lgan "Qarluq, qipchoq va o'g'uz lahjalarining materiallari asosida elektron lug'at tuzish va atlas yaratish" nomli innovatsion loyihada bemalol qo'llanishi maqsadga muvofiqligi ham bir qancha mulohaza va dalillar bilan ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: *dialektal so'z, lahja, sheva, qarluq, dialektal matn, leksik tahlil, metod.*

Kirish

Bugungi kunda ilm-fanning ko'p narsasi hal qilinishi dolzarb masalalar jumlasiga kiradi. Ulardan biri sheva so'zlarini saqlab qolish va tarix sahifalariga muhrlash hisoblanadi. Bunday dolzarb masalada o'zbek dialektologlari ayni vaqtda ilmiy kuzatishlarni olib borishmoqda.

Bilamizki, dialektal so'z bu shevalarda faol qo'llanib, adabiy til sathida kam yoki umuman qo'llanmaydigan leksik birliklardir. Bunday leksik birliklar sheva vakillari nutqida faol ishlatiladi. Shuning uchun ham ular qatnashgan matnlar dialektal matnlar hisoblanadi. Ular o'zbek dialektolog olimlarining asarlarida maxsus o'rganilmagan, ya'ni nomigagina o'rganilgan.

Dialektal lug'at tuzish bahonasida sheva so'zlarini qanday yig'ib olish, qanday tarzda lug'at maqola tuzish, qanday tarzda dialektal lug'at tuzish masalalariga 2008-yilda duch kelganmiz. Shundan beri bu masalada shug'ullanib, bir necha maqola va kitoblarni nashr ettirdik. Ammo dialektal lug'at tuzish masalasi hali hanuz ancha bahsli masalalardan biriligicha qolmoqda. Bu maqola ham yuqoridagi masalaning bir qirrasini, ya'ni sheva vakillari nutqidan yozib olingan dialektal matnlarning leksik tahliliga oid masalalarga e'tibor qaratilganligi bilan dialektal lug'at tuzishga yondashilgan.

Dialektal so'zlarga va dialektal leksikografiya masalalariga ilmiy asosda amaliy usulda jiddiy yondoshgan A.Ishayevdir. Uning o'zbek dialektal lug'atchilik va dialektal lug'atlarga qanday dialektal so'zlarni kiritish kerakligi haqidagi fikrlari bugun ham dolzarb

masalalardan biri hisoblanadi [Ишаев 1988, 1990]. Tadqiqotlar olib borish jarayonida sof leksik dialektal soʻzlar, frazeologik va leksik-fonetik oʻzgarishlarga uchragan dialektal soʻzlarni u yoki bu darajada qayd etib oʻtishgan. “Sheva leksikasini oʻrganish bir shevaning yoki oʻxshash shevalar guruhning leksikologiya tahlili bilan birlikda oʻsha shevaning umumiy xususiyatini yaratish (jamlash – *taʼkid bizniki*) imkoniyatini beradi” [Назаров, Фуломов 1993].

Oʻzbek xalq shevalari leksik jihatdan juda boy [Ashirboyev 2021]. Faqat ularni areal tadqiq qilish [Джурраев 1991], dialektal soʻzlarning dilaektal matnlarga asoslanib oʻrganilishi ilm-fan talablariga, yaʼni dialektologiya metodologiyasi talablariga mos keladi. Shuning uchun shevalarning dialektal soʻzligini dialektal matnlarga asoslanib saqlab qolish lozim, deb bilamiz. Zero, Oʻrxun-Enasoy yodgorliklari matn sifatida saqlanganligi uchun bugun ham ilmiy qiymatga ega ekanligini hisobga olsak, shevalarimizning dialektal manbalari hali ming-ming yillar oʻrganiladi.

Haligacha umumlingvistik (tarixiy, qiyosiy, tavsifiy) metodlar bilan birga tilshunoslik sohalaridan birining, masalan, “Oʻzbek dialektologiyasi” sohasining individual metodlari borligini eʼtirof etishmaydi. Chunki “Oʻzbek dialektologiyasi”ning leksikasi, leksikografiyasi va metodlari masalasida juda kam tadqiqotlar olib borilgan. Shu sababli ham oldinlari “Savol-javob”, “Anketa”, “Sheva soʻzlarini yigʻish uchun soʻroqlik” kabi metodlardan foydalanib, sheva soʻzlarini yigʻishga harakat qilingan. Ammo ular sheva vakillari nutqidagi dialektal soʻzlarni toʻliq qamrab ololmaydi. Shuning uchun biz bir necha yillik tajribalarimizdan kelib chiqqan holda dialektal matnlarning leksik tahlili metodini ilgari surish maqsadga muvofiq [Enazarov 2020].

Taʼkidlash kerakki, “Polivanov XX asrning 20-yillarida oʻzbek shevalarini lingvistik planda tekshirish ishini boshlaganda bu murakkab jarayonni ayni zamonda xilma-xil boʻlgan oʻzbeklarning etnografik xususiyatlarini, ularning kelib chiqishi va nomlanishi masalalarini oʻrganish ishi bilan qoʻshib olib borgan”, yaʼni sheva vakillaridan yozib olingan dilektal matnlar bilan ish olib boriladi [Абдурахмонов 1991]. “Bunda sheva vakillari bilan maʼlum bir mavzular doirasida suhbatlashiladi va ularning suhbatlari yozib olinib, keyin dialektal matnlarning leksik tahlili amalga oshiriladi. Yuqorida koʻrsatilgan metodlar bilan yigʻilgan dialektal soʻzlardan koʻprogʻini jamlab, dialektal soʻzlik sifatida saqlash mumkin.

Asosiy qism

Dialektal matnlarning leksik tahlilida quyidagilarga e'tibor berish lozim:

1. Bunday matnlarni qaysi transkripsiyada yozilganligiga va matnlardagi so'zlarning to'g'ri transkripsiya qilinishiga e'tibor berib, ularning qaysi sheva va lahjaga oidligini ko'rsatish.

2. Undagi fonetik hamda fonomorfologik o'zgarishlarni ko'zdan qochirmaslik.

3. Dialektal so'z va uning turlarini bilib, matndagi so'zlarni belgilab borish.

4. Dialektal matnning axborotchisi va yozib oluvchisiga e'tibor qaratish.

5. Unda dialektal so'z hamda uning turlari deb belgilangan so'zlarni alohida guruhlab yozish, dialektal matnlarni dialektal leksika talablari asosida tahlil qilib, ularda aniqlangan dialektal so'z turlarining miqdori qancha ekanligiga e'tibor qaratib, ulardagi faol dialektal so'z turlarini aniqlashtirish va lug'at maqolalar tayyorlash lozim.

Bundan ko'rinib turibdiki, dialektal matn tahlilida fonetik, leksik, fonomorfologik va grammatik xususiyatlarga e'tibor qaratish lozim bo'ladi. Shuning uchun ham bu tahlilni "Hozirgi o'zbek adabiy tili" fanidagi tahlildan farqlagan holda *dialektal matnlarning leksik-tahlili* deb nomlasak, o'rinli. Darslarda bu tahlildan foydalangan holda uni dialektal matnlarning tahlili metodi deb atash maqsadga muvofiq. Bunda ham dialektal matnga e'tibor qaratiladi va u asosida shakllangan metodga ham e'tibor qaratiladi.

Shu o'rinda quyidagi dialektal matn mazmuniga murojaat qilsak:

Izoh: matndagi bir qancha so'zlar oldingi dialektal matnda turli rangda berilgani uchun bu ikki matndagi dialektal so'zlar qavs ichida qoraytirib, so'ng ma'nosi berilgan.

Mening yangam ва холакаттам¹

(Mening йәнгәм ва хәләкәттәм)

Mening yangam (**йәнгәм** - kelinoyi) ajoyib ayol. U har qanday ishni chin dildan bajaradi. Mana hozir ham u dalada. Boshida zaynovi (**зәйнәвь** - yashil), bika (**быкә** - pushti rang (och qizil) va qara (**қәрә** - qora rang) ranglar aralash kassingka qo'lida grabl (**грәбл** - haskash (mehnat quroli) olib ishlamoqda. Daladan bo'sh vaqtlarida u tikuvchilik bilan shug'ullanadi. U joynomoz (**жәйнәмәз** - joynomoz),

¹Dialektal matn sarlavhasi.

lo'la (**ЛОЛЭ**- bolish), qariyalar uchun jelaklar (**ЖЕЛЭКЛЭ**: -yubqa ust kiyim), quroq (**ҚУРЭҚ** - turli xil matolar parchalaridan tikiladigan narsa) dasixonlar (**ДЭСИХЭН** - dasturxon) tikadi. Butun oila a'zolari undan xursand, ayniqsa, kattam (**КЭТТЭМ** - buvi). Shu xotinni kelin qilganlaridan ko'ngillari to'q (**КОНЬ ТОҚ-ХОТИРЖАМ**). Har doim yangamni (**ЙЭНГЭМ**) maqtab: **uvali-juvali bo'l** (**УВАЛЬ-ЖУВАЛЬ БОЛ** - uyli joyli bo'l) qo'sha qaringlar (**ҚОШЭ ҚЭРЪЛЭ**:-umrlaringni oxirigacha birga bo'linglar) kabi olqishlarni aytadilar.

Hammasidan ham zo'ri yangam (**ЙЭНГЭМ**) shirin-shirin ovqatlar pishiradi. Ular tayyorlagan qatig'laosh (**ҚЭТЪГЪЛЭШ**- quyuyq qatiqqa ugra solib pishiriladigan taom), ichiga boyimjon (**БЪЙИМЖЭН** - baqlajon sabzavot turi) va karchishka (**КЭРЧИШКЭ**- kartoshka sabzavot turi) solib pishiriladigan kovob (**КЭВЭБ**- taom turi), cho'mich (**ЧОМИЧ**-oshxona buyumi) bilan kovlab turiladigan atala (**ЭТЭЛЭ**- unni yog'da qovurib tayyorlanadigan suyuq taom), arvoypirda (**ЭРВЭЙПЪР**-marosim turi). Bu marosimni ko'pincha avto-ulovi borlar o'tqizadi) pishiriladigan halvoytar (**ХЭЛВЭЙТЭР**), shirvirich (**ШЪРВЪРЧ** - sirguruch). Sutga guruch solib tayyorlanadigan taom), kodipichak (**КЭДЪПЪСЧЭК** - qovoq solib pishiriladigan taom), g'ilvindi (**ГЪЛВЪНДЪ** - somsaning bir turi), yupqalarni (**ЙУБҚЭ** - somsaning bir turi. Ichiga qaymoq solib pishiriladi) yemabsiz bu dunyoga kelmabsiz. Biz bo'lalarimiz (**БОЛЭЛЭ**: - xolavachcha va amakivachcha) bilan yig'ilib tez-tez kattamniki (**КЭТТЭМ**) kelib turamiz. Yangamdan (**ЙЭНГЭМ**) ko'p narsalarni o'rganishga harakat qilamiz. Zero, bir kun kelib biz ham bir oilaning bekasi bo'lamiz. O'sha kunlarga qadar o'zimizda kelinlik ko'nikmasini shakllantirib boramiz.

Xalqimizda "Qariganda ham tinch o'tirmaydi" degan gap ko'p ishlatiladi. Bu bejizga aytilmagan albatta. Xolakattam (**ХЭЛЭКЭТТЭМ**- otaning xolasi) ham shundaylar sirasiga kiradi. Qarib, bukchayib qolgan bo'lsalar ham yosh juvonlar (**ЖУВЭНЛЭ**: - turmushga chiqqan ayol) singari serharakatlar. Buning isbotini jonli (**ЖЭНЛЬ**- har qanday uy jonzoti. Uy hayvoni) boqishni kanda qilmasliklaridan (**КЭНДЭ ҚЪЛМЭСЛЬК** - to'xtatmaslik) ko'rishimiz mumkin. Ularning uyida juvana (**ЖУВЭНЭ**- ho'kiz), inak (**ЪНЭК**-сигир) бизов (**БЪЗЭВ**-бузоқ), takalar (**ТЭКЭ**- echki) judayam ko'p. Dadam va pochchom (**ПЧЧЭМ**) jonlilarga (: **ЖЭНЛИ**) juda qiziqishadi. Shuning uchun tez-tez ularnikiga borib turishadi. Hovlilari ham anchagina katta bo'lib, jonzotlarga yemish bo'lsin deb yung'ichqa (**ЙУНГЪЧҚЭ** - beda), jugori (**ЖУГЪРЪ** - makka jъxori) ekib qo'yilgan.

Qorin ochqoganda (**ҚЭРЪН ЭЧҚЭГЭНДЭ**- qorin ochganda

ma'nosida) nima ovqat qilamiz?- deb o'ylashning ham hojati yo'q, sut-chakki (**ЧӘККЪ** - quyuq holdagi qatiq) mo'l. Borsak maza qilib yeb kelamiz. Shu bilan birgalikda uy ishlariga ham qarashib kelamiz. Buni ko'rgan xolakattam (**ХӘЛӘКӘТТӘМ**) xursand bo'lib bizni alqaydilar: qadding terakday bo'lsin (**ҚӘДДНГ ТЕРӘКДӘЙ БОЛСЫН**-beling g'amdan bukilmasin ma'nosida), uying bug'doyga to'lsin (**УЙ-ЫНГ БУҒДӘЙГӘ ТОЛСЫН**- risq nasibang mo'l bo'lsin), suvday serob bo'l (**СУВДӘЙ СЕРӘБ БОЛ**), nasibang ulug' bo'lsin (**НӘСЫБӘНГ УЛУҒ БОЛСЫН** - risq nasibang mo'l bo'lsin) kabi. Biz ham alqovlardan xursand bo'lib, ishimizga yanada shijoat qo'shamiz.

Qarisi bor uyning parisi bor¹

"Qarisi bor uyning parisi bor"-, degan naql qachon, kim birinchi bo'lib aytganini hech kim bilmaydi. Ammo hamma bu naqadar to'g'ri fikr ekanligini anlaydi. Nuroniy bobolarimiz, dona **kattalarimiz** (**КӘТТӘМ**) barcha **hovlidagi** (**ХӘВЛЬ** - uy) turli mavzudagi turli nasihatlar bora-bora qiziqarli **gurunglarga** (**ГҮ-РУНГ** - suhbat) aylanadi. Oiladagi mehr-oqibat va hamjihatlikni yanada mustahkamlashda, kattalarga hurmat, kichiklarda izzat fazilatlarini o'rganishda **qarilarning** (**ҚӘРЬ** - qariya. Yoshi ulug' kishi) o'rni katta.

Bobo va kattalarimiz (**КӘТТӘМ**) uyimizning fayzi hisoblanadi. Bobolarimizning ustlariga *jelak* (**ЖЕЛӘК**) kiyib, kattalarimizning *zaynovi* (**ЗӘЙНӘВЬ**), *bika* (**БЪКӘ**), *qara* (**ҚӘРӘ**) *kassinka* (**КӘСЫНКӘ** - ro'mol) yopinib, *tutaki* (**ТУТӘКЪ** - ochiq ranglarga nisbatan) *sinovoncha* (**СЫНӘВӘНЧӘ**- paxta solib qavilgan kamzul) kiyib, chakkalariga *nazvoylar* (**НӘЗВӘЙ** - rayhon(o'simlik)) taqib yurishlari bizga o'zgacha ko'tarinki kayfiyat uyg'otadi. Ayniqsa, ularning: "Uying bug'doyga to'lsin" (**УЙЫНГ БУҒДӘЙГӘ ТОЛСЫН**), "Umriginangdan baraka top" (**УМРЫҒЫНӘНДӘ: БӘРӘКӘ ТӘП**-hayotda qiyinchilik ko'rma ma'nosida), "Qadding terakday bo'sin" (**ҚӘДЪ: ТЕРӘДӘ: БОЛСЫН-**), "Uvali-juvali bo'l" (**УВӘЛЬ-ЖУВӘЛЬ БОЛ** - baxtli bo'l ma'nosida) kabi olqishlarini eshitganimizda qalbimizda ularga bo'lgan hurmat yana ham ortadi. Qarilarimizning (**ҚӘРЬ**) yana bir o'ziga xos xususiyati har bir gurunglarida (**ГҮРУН**) maqollardan unumli foydalanishlaridir. Bu esa aytilgan fikrning ta'sir kuchini oshiradi. Masalan: "Ayg'ir qanday bo'lsa, ot shunday" (**ӘЙҒЫР ҚӘНДӘ: БОЛСӘ, ОТ ШИНДӘ:**) "Bog'ing bo'lsa, qo'ra qil, O'g'ling bo'lsa, mulla qil" (**БӘҒЫНГ БОЛСӘ, ҚОРӘ ҚЫЛ, ОҒЛЫНГ БОЛСӘ, МУЛЛА ҚЫЛ**), "Igna qayoqqa yursa, Ip ham shu yoqqa yurar (**ЫҒНӘ ҚӘЙӘҚҚӘ ЙҮРСӘ, ЫП ХӘМ ШУ ЙӘҚҚӘ ЙҮРӘР**)" kabi. Bir so'z

¹ Dialektal matn sarlavhasi.

bilan aytganda bobo va kattalarimiz uyimizning farishtalari. Ularni e'zozlaylik (Bu maqola sal oldinroq tayyorlangani uchun undagi matnlarni kirill alifbosidagi transkripsiyani berdik).

Bu matnlarni tayyorlash va ularni "O'zbek dialektologiyasi"-dan dars o'tganda tushuntirish uchun umumiy o'qitish metodlari bilan birga dars o'tish va sheva bo'yicha ilmiy kuzatishlar olib borish jarayonlarida shakllangan **dialektal matnlar tahlili metodining** tarkibiy qismlari bo'lgan quyidagi xususiy metodlardan ham foydalanish maqsadga muvofiq:

1. Dialektal matn(lar)ni yozish metodidan dialektal matnlar sheva vakillarining o'zaro muloqot vaqtidagi nutqlarini yozib olishda foydalaniladi.

2. U(lar)ni transkripsiya qilish metodidan esa dialektal matnlarni ilmiy yozuv bo'lgan transkripsiyada qayd etishda qo'llaniladi.

3. Dialektal matnlarni leksik tahlil talablari asosida dialektal so'z turlarini aniqlash metodidan shu matnlarni tahlil etish jarayonida leksik tahlil talablarini amalga oshirish vaqtida qo'llanadi.

4. Dialektal so'z turlarini dialektal matnlar asosida tahlil etib o'qitish metodidan "O'zbek dialektologiyasi" fanidan ma'ruza, amaliy va seminar mashg'ulotlarida vaqti va o'rniga qarab foydalaniladi.

5. "Bir sheva lug'ati"ni tayyorlash orqali sheva materiallarini yig'ish metodi. Bunda bir shevaga xos leksik, fonetik, grammatik xususiyatlar o'rganiladi. Ushbu metodning tavsiya qilinayotganiga sabab shuki, juda ko'pchilik yoshi ulug' insonlar o'z shevalari xususiyatlarining qariyb 20 foizini yaxshi bilishadi. Mana shu holatning o'zi ham bir sheva bo'yicha katta hajmli dialektal materiallarni to'plashga imkon beradi.

Ular bir jarayonning umumlashma va xususiy ko'rinishlari sifatida dialektal matnlar tahlili metodiga birlashishlari tabiiy holdir. Demak, ko'rsatilgan kichik metodlar va ularning majmuyi bo'lgan dialektal matnlar tahlili metodi kabi metodlardan ma'ruza, amaliy va seminar mashg'ulotlarida vaqti va o'rniga qarab foydalanish maqsadga muvofiq.

Dialektal matnlar tahlili mohiyatini ifodalovchi kichik to'rtta metoddan unumli foydalanib, o'zbek va rus dialektolog olimlarining ilmiy ishlari, shuningdek, bir qancha nazariy va amaliy xarakterdagi ilmiy adabiyotlar bilan qiyosiy holda tanishib, shevalarda quyidagi turlari borligini aniqladik:

1) sof leksik dialektal so'zlar (**енә, surхәк, нәхәс, мурт, гәзәт** - ikki o'rgajli tuya; **кәрчишкә** - kartoshka sabzavot turi);

2) leksik-semantik dialektal soʻzlar (**ə**kə soʻzi ayrim shevalarda: “ota” va hatto, “pochcha” maʼnolarida qoʻllanadi);

3) leksik-fonetik dialektal soʻzlar (Masalan, soʻz boshida qoʻllanadigan adabiy tildagi y undoshi oʻrniga qipchoq lahjasiga oid dj-lashgan sheva vakillari, koʻpincha, dj undoshini talaffuz etadilar: *djaman-yomon*, *djoq-yoʻq*; oʻsha shevalarda ayrim unlilar soʻz boshida diftonglashadi; *tari(q)*, *sari(q)* kabi soʻzlar oxiridagi **q** undoshi talaffuz etilmaydi. *Yoʻgʻ* soʻzi fonetik oʻzgarishlarga uchrab *jdav* holatiga kelgan. F. A. Abdullayev “...fonetik oʻzgalik maʼnodagi oʻzgalik bilan bogʻliq boʻlsa, bunday soʻzlar lugʻatga kiritilishi kerak” [Абдуллаев 1966];

4) morfologik-fonetik dialektal soʻzlar (**əpəngʻlə** - opanglar; **ətəluvʻ** // **ətəluʻ** - otalari; **həmməlʻysʻ** - hammalari singari morfologik dialektal soʻzlar bor.);

5) morfologik-leksik dialektal soʻzlar (**məldər** - mollar);

6) leksik-derivatsion dialektal soʻzlar (*bergi* < *ber* + *-gi* - qarz; *chapqy* < *chap* + *-qy* - roygaga qatnashadigan ot; **жənlʻ** - har qanday uy jonzoti; *yur* + *-mel* (QQASSR-oʻgʻ.) - **yurmel** - tez yuradigan, yuragʻon; **quyash+ + lama** - **quyashlama** - oftobroʻya; **qavyr + -yishma** - **qavyrishma** - ziyofat);

7) frazeologik-dialektal iboralardan iborat dialektal soʻzlar (**əyogʻini qoliga olli** - shoshdi; **увəлʻ-жувəлʻ бол** - baxtli bol; **սսդəй серəб бол** - bola-chaqali boʻl);

8) atoqli ot (toponim) hamda ular joy nomlari shaklidagi dialektal soʻzlar ham (**Borigul**, **Itəlmas**, **Teshiktəsh**, **əlaqargʻa**, **Sinabogʻ**, **Akulova**);

9) etnografik dialektal soʻzlar (**nən sinni**, **javchi**, **pəchch-aburən**);

10) hikmatli soʻz (*Assaləmy alaykum. Bəllʻ. Baraka tƏping. XƏrməng*) va xalq maqoli koʻrinishidagi dialektal soʻzlar. Maqolni xalq yaratadi. U hozir ikkiga boʻlib oʻrganiladi:

1) Adabiy tilda qoʻllanadigan maqollar;

2) Sheva(lar)da qoʻllanuvchi maqollar.

Ammo dialektal xususiyatlari bilinib tursa-da, sheva(lar)da qoʻllanuvchi maqollarni dialektal soʻz turlari roʻyxatiga kiritish hozirgacha oʻylab koʻrilmagan. Folklorda xalq maqoli alohida janr hisoblanadi. U(lar)da maʼno butunligi mavjud, undan biror soʻzni ol-sangiz, maʼno oʻzgarib ketadi, yaʼni maqollik holatida boʻlmay qoladi. Masalan, *Рычоғы Элдын ознд ур, Эфрымаса, бурдөд ур*. Demak, dialektal maʼnolarga ega boʻlgan xalq maqollarini maʼlum bir nisbiy maʼnoda xalq maqoli koʻrinishidagi dialektal soʻz deyish oʻrinli

bo'ladi. Chunki ularda ham frazeologizmlardan farqlanuvchi bir butunlikda dialektal ma'no(lar) borki, ularni tashlab ham, unutib ham bo'lmaydi.

Bular ham, ya'ni dialektal so'z turlari ham shevalarning benihoya katta lug'aviy boyligini ko'rsatuvchi asos hamda dalillar majmuyidir. Chunki sheva vakillari bormi, demak, nutqda bir qancha so'zlar konnotativ ma'noda, ya'ni dialektal ma'noda qo'llanadiki, bu holatga ham haligacha jiddiy e'tibor berilgani yo'q. 1971-yilda nashr etilgan "O'zbek xalq shevalari lug'ati"dagi so'zlardan ko'rinib turibdiki, hozirgacha sof leksik dialektal so'zlar va qisman fonetik o'zgarishga uchragan so'zlar o'rganilgan, xolos. Qolgan dialektal so'zlar esa xalq shevalarida turganicha qolmoqda...

Ko'rsatilgan dialektal so'zlarning o'nta turi qarluq, qipchoq [Шоимова 2000] va o'g'uz lahjalariga oid shevalardan dialektal matnlarni yozib olib, leksik tahlil etishdagina topish mumkin.

Yuqoridagilarni e'tiborga olgan holda quyidagi umumlashmalarga kelindi: dialektal so'zlarni o'rganish o'zbek tilining leksik boyligini saqlashga imkon beradi. Dialektal so'z maqomi va dialektal matnni yozib olish metodi alohida fanga oid xususiy metodlar ekanligi uning "O'zbek dialektologiyasi" fan doirasida faol qo'llanishini anglatadi.

Dialektal so'z maqomi va uning turlarini bilmasdan turib, dialektal matnlarni yozib olishga kirishmaslik kerak. Chunki so'zlovchi dialektal so'zlarni qo'llab gapiradigan yoki ularni qo'llamasdan gapiradigan holatda bo'ladi.

So'zlovchi biror dialektal so'zni qo'llashni boshladimi, keyingi gaplarida ham shunday so'zlarni qo'llashi aniq. Shuning uchun ularning gaplarini yozib olishga kirishish o'rinlidir.

Dialektologiya metodologiyasiga tayanilgan holda dialektal matnlar tahlili metodi o'z ichida quyidagi kichik metodlarni jamlagan katta metod sanaladi:

- 1) dialektal matn(lar)ni yozish metodi;
- 2) u(lar)ni transkripsiya qilish metodi;
- 3) dialektal matnlarni leksik tahlil talablari asosida dialektal so'z turlarini aniqlash metodi;
- 4) dialektal so'z turlarini dialektal matnlar asosida tahlil etish orqali o'qitish metodi.

Xulosa

"Xullas, lahjalar va shevalar tilimizdagi bitmas-tuganmas boylikdir. Ularni mumkin qadar tezroq va to'liqroq yozib olishga

harakat qilish asosiy burchimizdir” [Ражабов 1996]. Albatta, mana shu metod(lar)dan foydalansak, eng kamaytirib aytilganda ham sheva vakillari nutqida saqlanib qolayotgan ikki yarim milliondan ortiq dialektal soʻzlarimizni tadqiq eta olamiz. Shuningdek, yuqoridagi metod (usul)lar bilan “Oʻzbek dialektologiyasi”, dialektal leksikografiya va dialektal leksika sohalarida quyidagi ilmiy texnologik jarayonlarni amalga oshirish mumkin:

1) sheva vakillarining gaplarini dialektal matnlar sifatida yozib, transkripsiya qilish;

2) yozib olingan dialektal matnlarni dialektal leksik tahlil qilish;

3) ularni dialektal leksik tahlil etish asosida dialektal soʻz, uning turlarini ajratish;

4) ajratib olingan dialektal soʻzlardan dialektal lugʻat maqolalar tayyorlash;

5) dialektal lugʻat maqolalarni dialektologiya nuqtayi nazaridan tahlil etib, sheva lugʻatlarini shakllantirish;

6) tayyorlangan va muhokama qilingan dialektal lugʻat maqolalardan shakllangan elektron lugʻatlarni nashrga tayyorlab, ulardan lingvistik atlaslarni yaratishga kirishish;

7) nashrga tayyorlab, muhokama qilingan dialektal lugʻat maqolalardan elektron sheva lugʻat(lar)ini shakllantirish;

8) dialektal lugʻat maqolalardan lingvistik atlas tayyorlash.

Bularning toʻliq shakllanishi natijasida dialektal lugʻat tuzish tamoyillarining [Абдуллаев 1966] talablarini bajarish mumkin boʻladi va dialektal lugʻat tuzishning yangi tamoyillarini ham shakllanishi oson boʻladi. Ushbu ilmiy texnologik jarayon dialektal elektron lugʻatlarni tayyorlashda yuqorida sanab oʻtilgan metodlar bilan birgalikda qoʻllanishi maqsadga muvofiq.

Adabiyotlar

Абдуллаев, Ф. 1966. “Диалектал луғат тузиш принциплари ҳақида”.

Ўзбек тили ва адабиёти 2: 39-42.

Абдуллаев, Ф. 1961. *Ўзбек тилининг Хоразм шевалари*. Тошкент: Фан.

Ashirboyev, S. 2021. *Oʻzbek dialektologiyasi*. Toshkent: Nodirabegim.

Ишаев, А. 1990. *Ўзбек шеваларининг диалектал лексикографияси*.

Тошкент: Фан.

Enazarov, T. 2020. *Dialektologiya metodologiyasi*. Toshkent: Innovatsiya-Ziyo.

Nafasov, T. 2010. *Qashqadaryo oʻzbek shevalari lugʻati*. Toshkent: Oʻqituvchi.

